

37.013.3:37.091.33

RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASHINING TIL O'QITISH JARAYONIDAGI O'RNI

Mamadaliyeva Nargiza Abdurasulovna

Namangan davlat chet tillari instituti doktoranti

E-mail: nrgzmmdl@gmail.com

[Orcid: 0000-0003-2158-6656](https://orcid.org/0000-0003-2158-6656)

890-740-46-86

Annotatsiya: Raqamlashtirishning kuchayishi sharoitida chet tilini o'qitishda mustaqil ta'limning o'рни har qachongidan ham katta bo'ldi. Ushbu maqola ESP (Maxsus Maqsadlar uchun Ingliz tili) talabalari, xususan, oliy ta'lim doirasidagi mustaqil ishlarning pedagogik va psixologik asoslarini o'rganadi. P. I. Pidkasiy, S. V. Akmanova va Tochilina Yu. N. nazariyalariga tayangan holda, tadqiqot mustaqil ta'lim qanday qilib o'z-o'zini anglash, motivatsiya, avtonomiya va fanlararo integratsiyani rivojlantirishni o'rganadi. Empirik ma'lumotlar Google Forms so'rovi natijasida menejment yo'nalishining birinchi kurs talabalari ishtirokida, ularning ingliz tilini mustaqil o'rganishda raqamli vositalardan foydalanishini va tasavvurlarini tahlil qilish orqali to'plangan. Natijalar multimedia yordamida o'rganishga (masalan, video darslar, interfaol testlar, mobil ilovalar) ustunlik beradi va til o'zlashtirishda insho yozish va ijodiy topshiriqlar muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, yaxshi tuzilgan, AKT bilan integratsiyalangan mustaqil ishlar talabalarning kasbiy malakalarini oshiradi va ularni raqamli jamiyatda umrbod ta'lim olishga tayyorlaydi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ESP talabalari, ta'limda raqamlashtirish, o'z-o'zini anglash, til o'rganishda AKT, multimedia vositalari, oliy ta'lim pedagogikasi, talabalar motivatsiyasi, avtonom ta'lim, ESP English.

РОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация: в условиях усиления цифровизации роль самостоятельного обучения в обучении иностранному языку стала как никогда значительной. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы самостоятельной работы студентов ESP (английского языка специального назначения), в частности, в рамках высшего образования. Основываясь на теориях. П. И. Пидкасистого, С. В. Акмановой и Точилиной Ю. Н. работа исследует, как самостоятельное обучение способствует самосознанию, мотивации, автономии и междисциплинарной интеграции. Эмпирические данные были собраны в результате опроса Google Forms с участием студентов-первокурсников управленческого направления путем анализа их использования цифровых инструментов и познания при самостоятельном изучении английского языка. Результаты отдают предпочтение обучению с использованием

мультимедиа (например, видеоуроки, интерактивные тесты, мобильные приложения) и подчеркивают важность написания эссе и творческих заданий для овладения языком. Исследование пришло к выводу, что хорошо структурированная самостоятельная работа, интегрированная с ИКТ, повышает профессиональную квалификацию студентов и готовит их к обучению на протяжении всей жизни в цифровом обществе.

Ключевые слова: самостоятельное образование, студенты ESP, ИКТ в образовании, самосознание, ИКТ в изучении языка, мультимедийные инструменты, педагогика высшего образования, мотивация студентов, автономное обучение, ESP english.

THE ROLE OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE PROCESS OF LANGUAGE TEACHING IN THE EPOCH OF DIGITIZATION

Abstract: in the context of increasing digitalization, the role of self-study in teaching a foreign language has become more significant than ever. This article examines the pedagogical and psychological foundations of the independent work of ESP (English for special purposes) students, in particular, in the framework of higher education. Notation: in the context of notation: in the context of increasing the role of independent learning in teaching a foreign language has become more significant than ever. This article examines the pedagogical and psychological foundations of the independent work of ESP (English for Special purposes) students, in particular, in higher education. Based on their theories of P. I. Pidkasisty, S. V. Akmanova and Tochilina Yu. N., the study explores how independent learning promotes self-awareness, motivation, autonomy and interdisciplinary integration. Empirical data was collected as a result of a Google Forms survey with the participation of first-year management students by analyzing their use of digital tools and imagination in self-study of English. The results give preference to learning using multimedia (for example, video tutorials, interactive tests, mobile applications) and emphasize the importance of writing essays and creative tasks for language acquisition. The study concluded that well-structured freelance work integrated with ICT enhances students' professional skills and prepares them for lifelong learning in a digital society.

Keywords: independent education, ESP students, digitization in education, self-awareness, ICT in language learning, multimedia tools, pedagogy of higher education, student motivation, autonomous learning, ESP English.

KIRISH

Hozirgi zamon texnologiya asri avlodining ta'lim-tarbiyasi jarayoni zamonaviy pedagoglardan tubdan yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bunda texnologiya avlodining o'qish va tekst ustida ishlashdan vizual kartina videolarga chekinishi klip tafakkurlilikka o'tganligi, bir vaqtning o'zida bir neta topshiriqni bajara olishi-multifunksionalligi alohida e'iborga sazovvor.

Zamonaviy ta'lim tizimi esa asosiy e'tiborni mustaqil ta'limga qaratayotgan bir paytda talabalarning mustaqil ishlash jarayoni alohida kompetentlikni talab qilmoqda. O'qituvchi-ustoz talabalarning asosiy bilim olish manbai bo'lib hizmat qilishdan qolib, uning bu roli internet bilan almashinildi va pedagogning bu vazifasi o'zgarib, u faqatgina talabani yo'naltirib turuvchi-fasilitator roliga otdi. Bu bilan u shogirdlarini informatsiya davrida o'zining mustaqil ta'lim olishida javobgarligini bilish va anglab yetishga o'rgatishi kerak bo'lib qoldi.

Pedagogika va metodika sohasida izlanuvchilarning mustaqil o'rganish jarayonini tashkil etish to'g'risidagi vazifalari hozirgi kunga kelib yanayam aktuallashib bormoqda. Ayni paytda nafaqat mustaqil ishlash turlari ko'paymoqda, balki uni nazorat qilish ham murakkablashib bormoqda. Oliy o'quv yurtlarida mustaqil ta'limning mohiyati ochib berilgani yo'q. "Mustaqil ta'lim" tushunchasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni shunchaki bir tomonlama ko'rib chiqish noto'g'ri bo'ladi. Sababi u psixologik, fiziologik, tashkiliy va didaktik aspektlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogikada "mustaqil faoliyat" va "mustaqil ish" tushunchalari ajratiladi. Ular bir xil emas va bir-biriga mos kelmaydi.

Mustaqil ishlar- talabalarning mustaqilligiga hizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

P. I. Pidkasistiy fikricha, mustaqil ish – bu ta'limni tashkillashning shakli, yoki o'qitish metodi emas, balki talabalarni mustaqil faoliyat olib borishiga jalb qilish vositasidir. Bu mustaqil faoliyatning mantiqiy va psixologik tashkillash vositasidir.

Ushbu ilmiy ishning predmeti, aynan talabalarning ingliz tili o'rganishdagi mustaqil ishidir. Bizning fikrimizcha, mustaqil ish bu mustaqil faoliyatga teng emas.

Mustaqil ishlashni to'g'ri tashkillanishi tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirilishida shubhasiz o'z psixologik-pedagogik tomondan ustunligiga ega.

"Mustaqillik" va "mustaqil" so'zlari shaxs bajarayotgan faoliyatni aniq bir turi, va shasning sifatini bildiradi. Keyingisi o'z ichiga ongliklik, faoliyatda ilxomlilik, iroda kabi kabi ma'nolarni olib, o'z ixtiyori va tashabbusi bilan harakat qilish va atrofni ta'siriga tushmaslikni bildiradi.

Pedagogik va metodik adabiyotlarning tahlili, shuni ko'rsatdiki, ta'limning turli darajalarida, mustaqil ish doimiy ilmiy izlanishning diqqat markazida bo'lgan.

Ushbu masalaga, K. D. Ushinskiy, T. J. Ilina, P. I. Pidkasistiy, Yu. K. Babanskiylarning tadqiqotlari bag'ishlangan. Darslarda talabalarning mustaqil ishlashlarini kuzatib, B. P. Yesipov shuni ta'kidladiki, talabalarning ta'lim jarayoniga kiritilgan mustaqil ishlari o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajariladi, lekin topshiriqni o'qituvchi belgilaydi, vaqt belgilaydi va bu jarayonda talabalar topshiriqda belgilangan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar, va bu jarayonda o'zlarining aqliy va jismoniy salohiyatini u yoki bu tarzda ifoda etib, o'z kuchlarini namoyon etadilar.

Mustaqil ish zahirida keng ko'lamda talabaning butun mustaqil faoliyati yig'indisini tushunish mumkin. U auditoriyadagi va undan tashqaridagi faoliyat bo'lishi mumkin. Unda o'qituvchi qandaydir tashkiliy rol ijro etishi ham mumkin, etmasligi ham mumkin.

N. A. Mamadaliyeva fikricha, talabaning lingvomadaniy bilimlari, dunyoqarashi va uni kundan kun mustaqil ta'lim olish orqali boyib borishi ham auditoriyada unga dadillik va fanlararo aloqani uzviyligini tushunishda kata ahamiyat kasb etadi

Tochilina Yu. N. ta'biricha mustaqil ish-faoliyat turi, ushbu faoliyatni tashkil qilish shakli, o'qitish metodi va vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ta'limda mustaqillik talabalarning butun bilish jarayoni, ja'mi o'quv faoliyatining aktivatsiyalarining muhim sharti hisoblanib, uzluksiz yangilanayotgan texnika, rivojlanib borayotgan ilmiy faoliyat va keskin o'sayotgan zamonaviy sharoitlarda, talabalarni kasbga tayyorlash va ularda kerakli kompetensiyalarni rivojlantirishdagi omillardan hisoblanadi.

ESP ta'lim yo'nalishlarida bakalavrlarni tayyorlash uchun "chet tili" fanining dasturida auditor soatlar soni bilan mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan, shuning uchun uni tashkil etish muhim va dolzarbdir. Zamonaviy ta'lim doimiy kasbiy o'sish, ijtimoiy harakatchanlik va moslashuvchan malakali mutaxassisni tayyorlaydi. Mustaqil ishlar esa o'quv jarayonini tashkil etishning etakchi shakllaridan biriga aylanib bormoqda va u talabalarning bo'lajak yetuk kadr sifatida doimiy, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga, bilimlarni to'ldirish va yangilashga, ularni amalda ijodiy ishlatishga tayyorligini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ammo

mustaqil ish mustaqil o'qish, mustaqil ta'lim va o'z o'zini intizomga solish bilan o'xshash tomonlarga ega deb ishoniladi. Ular jarayon xususiyatlariga ko'ra bir xil. Mustaqil ish shaxsni o'qitish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki mustaqil ishlashga tayyorlik o'z-o'zini tarbiyalashga, mustaqillikka va o'zini o'zi rejalashtirishga tayyorlikning asosiy shartidir.

Psixologiyadan ma'lumki, qiyinchilik bilan izlanib o'rganilgan ilm, o'qituvchidan tayyor qabul qilingan bilimdan ko'ra esda saqlab qolinishi davomiyroq bo'ladi, sababi talaba mustaqil izlanganda, butun undagi intellectual, emotsional va iroda harakterlarini ishga tushuriladi. Bunda talaba neytral-passiv holda qola olmaydi. Lekin o'qituvchining keragidan ortiq tushuntirishlari oqibatida talabada tormoz holati yuzaga kelishi mumkin. Sababi bir informatsiyaning takror va takror tushuntirilishi talabada intuitiv tarzda men buni bilan tanishman degan tushunchani hosil qiladi va u neytral-passiv holda diqqat jamlaydi va oqibatda o'rganilayotgan materialni o'zlashtirmaydi, ya'ni materialni tushuntirishda qo'yilgan savolga o'qituvchining doim ham javob berishi natija bermaydi. Talabalarning o'zlari javob topishi esa samaraliroq bo'ladi. Biroq bu holatda talabalarning oldindan tayyorlik holatiga alohida e'tibor qaratish lozim, sababi aynan shu jarayon mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Avvalari, talabalarining mustaqil ishlash bilan shug'ullanishi ta'lim jarayonga bevosita jalb qilinish va band qilishni bildirgan bo'lsa, hozirda u OTMni bitirguncha va undan keyin ham olingan ilm va bilim bagajini kerakli kompetensiyalar bilan to'ldirib borish va zamondan ortda qolmaslik uchun juda zarur bo'lib qolmoqda.

Mustaqil ishlashning yana bir afzalligi shundaki, u talabaning individualligini ta'minlaydi. Talaba o'zi xohlagan manbaga murojaat qilib, o'zi xohlagan resurslardan foydalanishi mumkin. Bu esa talabada javobgarlik hissini orttiradi va uning o'zlashtirish darajasida aks etadi.

Mustaqil ishlash orqali talaba o'zining eruditsiyasini namoyon qiladi, o'z dunyoqarashini boyitadi va keljakdagi kasbiga tayyorligini bildiradi. Bu orqali u o'z o'zidan mustaqil o'rganish ko'nikmalarini ham rivojlantirib boradi. Ular mustaqil izlanishva o'shuningdek bilimlarni ijodiy tahlil qilish jarayonidir, bunda vaqtni

boshqarish, bilish va anglab yetish faoliyatining umumiy mantiqiy usullarini boshqarish bilan bog'liq.

Mustaqil o'rganishda

1. Men-konsepsiyasi rivojlanadi,
2. Fanlararo aloqa kengayadi va olinayotgan bilim mustahkamlanadi,
3. Talabalarni ilmiy izlanish orqali mustaqil ravishda kasbiy-ijodiy masalalarni yechishga jalb qilinadi.

Bunda Karl Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan Men-konsepsiyasining ijobiy faollashuvi kamida mustaqil o'rganishni tashkil qiluvchi har bir ko'nikmani yuqori darajada rivojlantishga va ko'pida talabada mutaxassislikka oid bilimlarni oshirishga hizmat qiladi.

Mustaqil o'rganish bu tizimli, maqsadga yo'naltiruvchi va avtonom faoliyat turidir. Unda bilimni izlanish, o'zlashtirish va ijodiy qayta ishlash nazarda tutiladi. Mustaqil ta'limni tashkil etish uchun asosiy psixologik nazariyalardan kelib chiqib, uni Akmanova S.V. (2004) quyidagi 4 xil komponentga ajratadi

1. Rag'batlantiruvchi komponentlar-talabaning ilxom va ichki kuchining ko'rsatkichidir. Ular maqsadlilik, bilishga yo'naltirilgan, tayyorlik, tafakkur motivlari, mustaqil o'rganishning maqsadi

2. Itiyorlilik komponentlari- bu komponentlar talabaning iroda darajasini belgilab beradi. Ular maqsadga yo'nalganlik, qat'iyatlilik, mustaqillik, tartiblilik, chidam va bardoshlilikni o'z ichiga oladi.

3. Kognitiv komponentlar-o'z-o'zini tarbiya qilish, boshqarish tartiblilikka o'rgatish uchun zarur bo'lgan bilim va ularni amalga oshirish usullari haqidagi ma'lumotlar va nazariyalarni o'z ichiga oladi.

4. Operatsional component- o'z ichiga olgan mustaqil o'rganish uchun eng zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liqdir.

- Rejalilik- vaqtni boshqarish, o'z-o'zini boshqarish

- Kommunikativ ko'nikmalar-ma'lumotlarni yig'ish, kitob, AKT bilan ishlash, ma'lumotlarni tizimlashtirish, klassifikatsiya qilish bilan ishlash, shasiy kompyuter bilan ishlash bilan bog'liq.

• Ilmiy izlanish faoliyati ko'nikmalari-analiz-sintez, ijodiy-refleksiv fikrlash, abstract fikrlash, umumlashtirish, aniqlashtirishga oid ko'nikmalar.

Tochilina Yu. N. va Akmanova S. V.lar fikricha talabalarning kelajakdagi kasbiga tayyorligini rivojlantiruvchi factor sifatida ularni boshlang'ich kursdan oq mustaqil ishlash va mustaqil o'rganish bilan band qilinganligi belgilaydi. Kursdan kursga talaba o'z ko'nikmalarini rivojlantirib, mustaqil ravishda yuqori darajaga olib chiqadi.

Mustaqil o'rganishning asosini tashkil qiluvchi mustaqil ishlarning afzalliklarini sanalganda, uni xorijiy til faniga tadbiq qilinishi haqida ham qator savollar tug'iladi. Savol shundayki, "xorijiy til" degan fanga ro'para kelinganda mustaqil ish degan tushuncha samara beramikin? Sababi ushbu fanning mazmun mohiyatida birinchi o'rinda partnyorlik va kollaboratsiya turadi.

Shubhasiz, og'zaki nutq- bu gapirish- suhbatdosh bilan muloqot orqali yuzaga keladi, bunda suhbatdosh roliga o'qituvchi ham guruhdosh talaba ham chiqishi mumkin. Ma'lumki, gapirish o'ziga xos muloqotni ta'minlovchi tayyorgarlik jarayonini talab qiladi, bu jarayonda mustaqil ish eng optimal shakl hisoblanadi, sababi mustaqil ravishda o'z gapirish ko'nikmasi ustida turli texnikalar orqali ishlash kollaboratsiya va partnyorlikda ham yuqori natijalar beradi.

Avvallari, odatda, mustaqil ish faqat uyga vazifa tarzida amalga oshirilgan. Keyinchalik esa mustaqil ishlar bilimlarni mustahkamlash va o'zlashtirilganlikni nazorat qilish bosqichlarida ham qo'llanila boshlandi. So'ng esa u yangi o'quv material bilan tanishish va uni mustaqil ravishda anglab yetish jarayonida ham to'laqonli o'rin egalladi. So'nggi vaqtlarda, raqamlashtirish va bilimlar transformatsiyasi davrida, xorijiy tilni o'rganishning barcha bosqichlarida mustaqil ish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqil ish tarkibiga til material ustida ishlashning ayrim bo'g'inlarini – material bilan tanishish hamda uni qo'llash bo'yicha mashqlarni – kiritish maqsadga muvofiqdir. Talabalar mustaqil ish davomida foydalanishi mumkin bo'lgan axborot manbalarining asosiylaridan biri avvalgidek darslik hisoblanadi. Darslik matnlari, shuningdek, o'qituvchi tomonidan o'quv jarayoniga kiritilgan qo'shimcha matnlar mustaqil ish uchun muhim axborot manbalari hisoblanadi. Darsliklarda keltirilgan

turli leksik va grammatik mashqlar ham til materiali ustida mustaqil ishlashda katta ahamiyatga ega.

Biroq, raqamlashtirish mavjud didaktik uslublarni amalga oshirishga ko'maklashishi, shuningdek, ushbu uslublarda yangi faoliyat turlarini taklif etishi mumkin. Raqamli vositalardan foydalanish xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishning tashkil etilishini asta-sekin o'zgartirib bormoqda. Turli platformalar paydo bo'lmoqda, ular o'quv-uslubiy va o'quv materiallarini taqdim etib, o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlaydi; onlayn kurslar hamda moslashuvchan darslar yaratilmoqda; ijtimoiy tarmoqlar ham o'quv jarayonida o'z o'rnini topmoqda. Shunday ekan, til materiali ustida ishlash bugungi kunda raqamli vositalardan foydalanilgan holda amalga oshirilmoqda. Avvalo, yangi so'z boyligi bilan tanishish elektron lug'atlar orqali boshlanadi.

Albatta, raqamli vositalardan foydalanish faqat xorijiy tillarni emas, balki boshqa o'quv fanlarini o'rganishda ham bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy Rossiya jamiyatida raqamli ta'limning foyda va zararlari haqida bahslar tinmayapti. Mobil qurilmalar ta'lim jarayoniga jadal ravishda jalb qilinmoqda. Ko'pgina o'qituvchilar bu holatda hech qanday salbiy jihatni ko'rmayapti, boshqalari esa shunchaki bunga ko'nikishga va mobil telefonlarni o'quv tizimiga qo'shishga majbur bo'lmoqda. Mobil ta'lim mustaqil ish uchun katta imkoniyatlarga ega, chunki u istalgan joy va vaqtda mavjud – bugungi kunda har bir insonda raqamli qurilma mavjud. Xorijiy tillarni o'rganishda mobil qurilmalardan foydalanish ularning asosiy funksiyalari bilan cheklanishi mumkin (masalan: audio podkastlar tinglash, elektron kitoblar o'qish, xorijiy tildagi SMS xabarlardan foydalanish, xorijiy tilda guruhli suhbatlar olib borish). Shu bilan birga, maxsus ishlab chiqilgan dastur va ilovalardan – masalan, leksika va grammatika bo'yicha turli o'quv dasturlari, mobil lug'atlar, testlar va boshqalar – foydalanish talabalar mustaqil ishini tashkil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Raqamli ta'lim g'oyasi – bu o'quvchilarga keng ko'lamli axborot texnologiyalari va turli ta'limiy strategiyalar orqali aniq natijalarga erishishga yordam berish uchun ishlab chiqilgan. Biroq, amaliyotda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida talabalarga oddiygina raqamli qurilmalarga kirish huquqini berish ko'pincha kutilgan

natijalarga olib kelmaydi, balki aksincha, salbiy oqibatlariga olib keladi. Sifatli natijaga erishish uchun ta'limiy va axborot texnologiyalarini to'g'ri integratsiya qilish zarur. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) mustaqil ishdagi o'рни hali to'liq aniqlanmagan, ammo bugungi raqamli avlodni o'qitishda aynan AKT asosiy o'ringa chiqishi muqarrar ko'rinmoqda.

Ta'kidlash joizki, mustaqil ish o'quv sharoitida faqat nisbatan mustaqil faoliyat hisoblanadi. Talabalar unga bevosita bo'lmasa-da, bilvosita tarzda o'qituvchining ta'sirini sezadilar. Birinchidan, o'qituvchi talabalarni mustaqil ishlashga motivatsiya qilishga yordam beradi, ikkinchidan esa, bu jarayonning oqilona va samarali yo'nalishini ta'minlaydi. Mustaqil ish qanchalik ko'ngilli asosda amalga oshirilsa, uning samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. O'qituvchining vazifasi – talabalar orasida mustaqil ishlashga ehtiyoj tug'ilishini ta'minlaydigan sharoit yaratishdir. Talabalarda o'zaro muloqot uchun zarur bo'lgan bilim va materiallar yetishmasligini his etishlariga sabab bo'luvchi vaziyatlarni yuzaga keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday sharoit yaratish kerakki, talabalar muloqotda kerakli ma'lumotga defitsit his qilishi kerak. Va bu bilan ushbu defitsitni to'ldirish uchun zarur manbani ko'rsatib o'tish kerak.

Tanlangan kasbiy faoliyat sohasida olib borilayotgan ish natijalarining amaliyotda qo'llash imkoniyati talabalarni chet tili bo'yicha mustaqil ta'lim jarayonida ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Bu talabaga ozini kelajakdagi mutaxassis kabi tutishiga yordam beradi. Keyslar, multimediyali prezentatsiyalar, oyinlar talabalarni ijodiy faoliyatga ilxomlantiradi. Talabaning mustaqil faoliyatida ilmiy- tadqiqot komponenting mavjudligi juda samarali hisoblanadi. Ilmiy- amaliy konferensiya va seminarlarga xorijiy tilda tayyorgarlik va unda qatnashish, til bo'yicha ilmiy- tadqiqot ishlar tanlovi, tillar bo'yicha olimpiadalar shular jumlasidandir. Mustaqil ta'lim orqali biror bir masalani yechish, talabani bo'lajak professional sifatida qirralarini ochilishiga xizmat qiladi. Talabaning kuchli tomonini kashf qilishida mustaqil ta'limning har qanday shaklining o'z o'рни bor. O'z navbatida ijodiy topshiriqlar talabaning bilimini chuqurlashuviga sabab bo'ladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'limning aktiv va interaktiv shakllari qo'llanadi.

Aktiv forma-individual mashg'ulotlar, ma'lum bir mavzu bo'yicha konsultatsiya olish, konspektlash, test, dokladlar tayyorlash kirsas, interaktiv shakldagi mustaqil ta'lim bu- prezentatsiya tayyorlash va namoyish qilish, konkurslarda ishtirok etish, olimpiadalarda qatnashish, projekt topshiriqlari, keyslar tahlilini o'z ichiga oladi.

Mustaqil ishlarning nazorati esa turli xil bo'lishi mumkin, og'zaki ko'rinishda- o'qish, muloqot, tushuntirish va b., yozma- esse yozish, insho, bayon, maqola, test, nazorat ishi va b.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Google forms yordamida Namangan davlat texnika universiteti 1-kurs menejment yo'nalishi talabalari bilan so'ro'vnomas o'tkazildi. Jami 22ta talaba bn bo'lib o'tgan so'rovnoma ingliz tili ikkinchi til sifatida ESP (maxsus maqsadalarga yo'naltirilgan ingliz tili) dars mashg'ulotlarida auditoriadan tashqari mustaqil ishlash jarayonlari bilan bog'liq aspektlar savolnomaga kiritildi.

Quyidagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 28 talabadan 96.4 foizi mustaqil ishlash soatlarini ijobiy baholadilar, 3.6 foizi javob berishga qiynalishini aytganlar



1-rasm. Talabalarining ingliz tili darslarida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarining mavjudligiga munosabati.


Ingliz tili fanidan mustaqil ish mashg'ulotlari qaysi til aspekti bo'yicha bo'lgani maqsadga muvofiqligi haqida ham savol berilgan. Talabalarga javoblardan birini tanlash imkoniyati berilgan. Ko'rinib turibdiki, 45.9 foiz bilan tinglab tushunish, 25

foiz bilan gapirish, 17.9 foiz bilan o'qish, va 14.3 foiz bilan yozish aspektlari talabalar tomonidan tanlangan.

Ingliz tili fanini qaysi aspektini mustaqil o'rganish maqsadga muvofiq deb oylaysiz

 Копировать диаграмму

28 ОТВЕТОВ



2-rasm. Ingliz tili til aspektini mustaqil o'rganish imkoniyati osonligini korsatkichi


Savolnomada (3-rasm) talabalar uchun eng samarali o'quv shaklini tanlashi kerak bo'lgan savolga multimediyali presentatsiyalarni eng ko'p foiz bilan belgilangan. Presentatsiyalarni talabalarning o'zlari tomondan tayyorlanishi jarayonida ular bevosita ma'lumotlarni tahlil qilib, auditoriyaga moslab dizayn qilishi ularga ko'proq samara berishini ko'rib turibmiz. Chunki bunda ma'lumotlarni aktiv ravishda sintezlashlariga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinda interaktiv testlar bo'lsa, bunda talabalar har xil nazorat testlarini o'zaro kollaboratsiya qilib o'rganishi yuqori samara berishi ko'rinib turipti. Diagrammada eng past ko'rsatkich loyiha ishlariga tegishli bo'lyapti, sababi 1-kurs ESP talabalari uchun loyiha ishlari orqali ingliz tilini mustaqil ish samaradorligi biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki unda nafaqat til o'rganish bilan bog'liq ko'nikmalar, balki uni namoyish qilishda ham turli til aspektlaridan bir vaqtda foydalanishga to'g'ri keladi.

Keyinchalik (4-rasmda) so'rovnomada til o'rganishdagi samarali va afzal multimediya vositasi aynan mustaqil ta'limga tadbiqui so'ralganda, talabalar video darslar, TED talks kabi video roliklarni samaraliroqligini aytib o'tishgan. Keyingi ko'rsatkich audio podkastlarga tegishli bo'lsa, mobil ilovalar va applar qo'llanilishi bo'yicha 3 o'rinda turipti. Talabalar uchun eltron darsliklar va pdf fayllardan

foydalanib dars tayyorlash afzallik darajasini yo'qotgan, chunki Tochilina Yu. N (2020), aytganlaridek texnologiya asri talabalari ko'proq audio-visual bo'lib bormoqda. Ular uchun o'qib bilim olish talabi pasayib bormoqda.

Til o'rganishda sizga ko'proq muvaffaqiyat olib kelgan faol o'quv shaklini belgilang (bir nechta javob tanlashingiz mumkin):


28 ОТВЕТОВ



3-rasm. Til o'rganishda samadorroq texnika tanlovi


Savolnomaning yakunida talabalardan ingliz tili fanidan mustaqil ishlarni bajarishda qaysi AKT vositalaridan foydalanasiz degan savol so'ralganida, menejment yo'nalishi talabalari eng yuqori ko'rsatkich bilan google translaterni tanlashgan. Keying o'rinda online lug'atlar va ijtimoiy tarmoqlar turgan bo'lsa, mobil ilovalarni talabalar pastroq ko'lamda qo'llashlari ko'rinib turipti. Boshqalar degan tanlov talabaning ixtiyoriga berilib, u kitoblar, lug'atlarni belgilashlari uchun berilgan edi. Bundan umumiy xulosa qilib ayta olamizki, talabalar, mantiqni ham o'zi oylab to'g'ri tarjima qilib bera oladigan dasturni afzal ko'rishadi.

Ingliz tili fanidan mustaqil ishlar bajarishda samaraliroq deb hisoblagan multimedia vositalarini belgilang (bir nechta javob tanlashingiz mumkin):



4-rasm. Mustaqil ta'lim olishda samarali multimedia vositasi ko'rsatkichi

Ingliz tili fanida mustaqil ishlar bajarishda foydalanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalarini ko'rsating:



5- rasm. Ingliz tilini fanidan mustaqil ishlar bajarishda talabalar foydanayotgan AKT vositalari ko'rsatkichi

Maqolamiz xulosasida shuni aytib o'tmoqchimizki, talabalarning ingliz tili darslarida mustaqil ishlarni bajarish samaradorligi ularga alohida shaxsiy yondashuvni talab etadi. Mustaqil ishlarni bajarish davomida talaba faoliyat subyektiga aylanib, mehnat bozorida talab qilinadigan yetuk mutaxassisning kommunikativ, kompensator va sotsiomadaniy kompetensiyalarini egallaydi va rivojlantiradi. Sababi mustaqil ishlarni kerakli bilimlarni egallashi va fikrlashini kengaytirishi uchun bajartiriladi.

Tanlangan kasbiy solohiyat sohasida olib borilayotgan ish natijalarining amaliyotda qo'llanilishi mumkinligi, xorijiy til bo'yicha mustaqil ish jarayonida talabalar ijodiy salohiyatining rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Bu talabaga o'zini o'quv jarayonida mutaxassisdek ko'rsata olish imkonini beradi. Multimedia taqdimotlari, o'yinlar, keyslar, loyihalar kabi faol o'qitish shakllari talabani ijodiy faoliyatga rag'batlantiradi. Talabani mustaqil faoliyatida ilmiy-tadqiqot komponentining mavjudligi juda muhim hisoblanadi. Bunga xorijiy til bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlarga tayyorgarlik ko'rish hamda ularda ishtirok etish, xorijiy tilda ilmiy-tadqiqot ishlar tanlovlari, til olimpiadalari va shunga o'xshash tadbirlar kiradi. O'quv topshiriqlarini mustaqil tarzda hal qilish jarayoni talabani bo'lajak mutaxassis sifatida shaxsiy jihatdan ochilishiga yordam beradi. Mustaqil ishning har bir shakli talabani ijodiy salohiyatini ochishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, ijodiy topshiriqlar talabalar bilimining chuqurlashuviga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishining ikki xil shakli qo'llaniladi: faol shakllar (talabani o'qituvchi bilan o'zaro aloqasi) va interaktiv shakllar (talabani o'qituvchi hamda boshqa talabalar bilan o'zaro aloqasi). Faol shakllarga quyidagilar kiradi: individual mashg'ulotlar, mavzu yuzasidan konsultatsiyalar, mavzuga oid materiallarni konspektlash, testlar va nazorat ishlari, ma'ruzalar tayyorlash va hokazo. Interaktiv shakllarga esa taqdimotlar tayyorlash va u bilan chiqish qilish, konferensiyalarda nutq so'zlash, xorijiy til bo'yicha tanlovlar va olimpiadalarda ishtirok etish, loyiha ishlari, keys tahlili va boshqalar kiradi.

Talabalar mustaqil ishining nazorati turli shakllarda amalga oshiriladi: og'zaki shaklda (matn o'qish, ma'lumot berish, suhbat, tushuntirish va boshqalar), yozma shaklda (insho, esse, maqola va tezislar, yozma mashqlar, testlar, nazorat ishlari va hokazo).

XULOSA

Xorijiy til bo'yicha mustaqil ishni tashkil etishda esse yozishga alohida e'tibor qaratilishi zarur, chunki bu faoliyat quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi: talabani ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o'z fikrlarini yozma ravishda bayon eta olish ko'nikmasini shakllantirish. Mazkur mustaqil ish shakli orqali o'qituvchi talabani

quyidagi jihatlar bo'yicha baholaydi: olingan ma'lumotni qayta ishlash, taqqoslash, umumlashtirish, belgilangan mezonlarga ko'ra tasniflash, muayyan hodisa yoki voqeaga nisbatan o'z bahosini berish va unga munosabat bildirish.

Shubhasiz, har qanday o'qituvchi o'quv jarayonida mustaqil ishning ijobiy ta'sirini yuqori baholaydi. Shu boisdan, talabalar o'zlari mustaqil ishning ahamiyatini qanday baholashlari masalasi ham alohida qiziqish uyg'otadi.

References

1. Akmanova S.V. Развитие навыков самообучения у студентов университета, 2004
2. Yesipov B. P. Самостоятельная работа учащихся на уроках [Текст] / Б.П. Есипов. – М.: Учпедгиз, 1961. – 240 с.
3. N. A. Mamadaliyeva Лексико-семантические особенности выражения значения мудрости в узбекском и английском языках/ fledu.uz, 2018
4. Педагогика: учеб. / под ред. П.И. Пидкасистого. – М.: Пед. общ-во России, 2009.
5. Tochilina Yu. N Роль самостоятельной работы студентов в процессе обучения иностранным языкам в эпоху цифрового образования
6. Пидкасистый П.И. Самостоятельная деятельность учащихся [Текст] / П.И. Пидкасистый. – М., 1972. – 42 с.
7. Шалагинова Е. А. Организация самостоятельной работы студентов-бакалавров при обучении иностранному языку в неязыковом университете/VyatSU, 2018